



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

*“Qishloq xo'jalik mashinalari,
foydalanish va
ta'mirlash” kafedrası
5430100- Qishloq xo'jaligini
mexanizasiyalashtirish ta'lim
yo'nalishi bakalavriat
bitiruvchisi*

MARDIYEV MUHIDDIN MA'MUR O'G'LINING

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Mavzu: Agroservis korxonalarida qurilish va qishloq xo'jalik texnikalariga texnik
servis xizmatini tashkil etishni



Ilmiy rahbar, katta o'qituvchi _____ A.Beknazarov

**“Qishloq xo'jaligini mexanizasiya-
lashtirish va mahsulotlarni qayta
ishlash” dekanı,
dotsent _____ Dj.S.Yuldashev
« _____ » _____ 2014**

**“Qishloq xo'jalik mashinalari,
foydalanish va ta'mirlash” mudiri,
dotsent _____ Z.Abdug'aniyev
« _____ » _____ 2014**

SAMARQAND-2014

ANNOTASIYA

Ushbu bitiruv malakaviy ishi meliorativ transport va texnologik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, kirish, umumiy, tashkiliy, konstruktorlik, loyihalash, hayot faoliyati xavfsizligi, atrof muhit muhofazasi, iqtisodiy qismlar, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

Tashkiliy qismida mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish strategiyasi va uni tashkillashtirish, yillik ish tartibini hisoblash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishning oylik reja-jadvalini tuzish, KMK ning ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bazasining yillik dasturini hisoblash, mexanik ta'mirlash ustaxonasi va ixtisoslashgan ko'chma xizmat ko'rstaish vositalarining yuklanish grafigini qurish masalalarining dolzarligi yetarlicha ochib berilgan.

Konstruktorlik qismda ilashish muftasini bo'laklash va rostlash stendi, Stend tortqichi stejenini mustahkamlikka hisoblash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Loyihalash bo'limida texnik servis markazi tarkibini asoslash va ish xajmini ish turlari bo'yicha taqsimlanishi, texnik servis markazi ish rejimi va vakt fondi hisobi, Texnik servis markazi ishlab chiqarish ishchilari hisobi, remont – texnologik jihozlar sonini hisoblash, texnik servis markazi ishlab chiqarish maydonlari hisobi ishlab chiqilgan.

Ish unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarida texnika xavfsizligi hamda atrof muhit muhofazasi ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tiklash usulining iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy qismda hisob kitoblar bilan to'la asoslab berilgan.

Raxbar	Beknazarov A				
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Варак	№ хужжат	Имзо	Саҳа	001.001.083. BMI. 2014 y.
					Варак

MUNDARIJA

	Kirish
	«AgroServis» qo'shma korxonasi rivojlanish bosqichlari
I-BOB	TEXNOLOGIK QISM
1.1.	Texnik servis xizmati ko'rsatish strategiyasi va tizimi.....
1.2.	Texnik servis ko'rsatishni tashkil etish.....
II-BOB	KONSTRUKTIV QISM
2.1.	Texnik servis markazi asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash.....
2.2.	Mashinalarni ta'mirlash va ularni texnik xizmat ko'rsatishning yillik rejasini hisoblash va tuzish.....
2.3.	Mashinalarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishning oylik reja-jadvalini tuzish.....
2.4.	Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bazasining yillik dasturini hisoblash.....
2.5.	Texnik servis markazi tarkibini asoslash va ish xajmini ish turlari bo'yicha taqsimlanishi.....
2.6.	Texnik servis markazi ish rejimi va vakt fondi hisobi.....
2.7.	Texnik servis markazi ishlab chiqarish ishchilari hisobi.....
2.8.	Remont – texnologik jihozlar sonini hisoblash.....
2.9.	Texnik servis markazi ishlab chiqarish maydonlari hisobi.....
2.10.	Energetik resurslar hisobi.....
2.11.	Ishlab-chiqarish binosi bo'limlari joylashish rejasini ishlab chiqish.....
III-BOB	ATROF MUHIT VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH...
3.1.	Hayot faoliyati xavfsizlikni ta'minlash usullari.....
3.2.	Yong'inga qarshi ishlarni tashkil qilish.....
IV-BOB	IQTISODIY QISM.
4.1.	Texnik servis markazi texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobi ..
	Xulosa va takliflar
	Foydalanilgan adabiyotlar
	Internet ma'lumotlari

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Варак
Bajardi	Mardiev M				
Uzg	Варак	№ хужжат	Имзо		

KIRISH

Global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Hozirgi mavjud sharoitda 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning eng ustuvor vazifalaridan biri jahon iqtisodiy inqirozining ta'siri va oqibatlarini yetarlicha to'liq hisobga olish, yetishtirilayotgan yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmat tannarxini pasaytirish, olinayotgan foyda xajmini oshirish orqaligina inqiroz ta'siridan chiqishimiz mumkin [1].

Shundan kelib chiqqan holda, o'z-o'zidan ayonki, mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009—2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi [1].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng butun e'tiborini mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish, kelajagi buyuk davlat qurishga karatdi. Bunga erishish uchun respublikaning moliyaviy, moddiy tabiiy zaxiralari mavjud bo'lib, shu bilan birga geografik jihatdan qulay joyda joylashgan.

Endigina mustaqillikka erishgan respublikaning kelajagi, uni rivojlanish yo'li va modeli qabul qilindi. Bu tarixda Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili sifatida zarxal xarflar bilan muhrlanib qoldi [1].

O'rta Osiyo davlatlari orasida o'z so'zi va mavqyeiga ega bo'lgan respublikaning qishloq xo'jaligi, sanoat va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari rivojlantirish va ularda ishlab chikarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, xorijiy investisiyalarni ushbu sohalarga olib kirish kabi muammolar kunning dolzarb muammolari edi.

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Варак
Bajardi	Mardiev M				
Узг. Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Milliy daromadimiz asosini tashkil etgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bajariladigan ishlarni mexanizasiyalashtirilgan ishlar mexanizasiyalashtirish darajasini oshirish hamda eskirgan mashina traktor parklarini zamonaviy yuqori unumli texnikalar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida 1996 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mashina traktor parklarini tashkil etish» bo'yicha farmoni e'lon qilindi. Xar bir viloyat tuman markazlarida MTP DAJlar tashkil qilinib, ular Amerika qo'shma shtatlari, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Rossiya kabi xorijiy davlatlarda ishlab chikarilgan «Case», «Claas», «Lemken», «Djohn Deer», «Samsung», «Hunday», «LIUGONG» va boshqa bir qator davlatlardan zamonaviy, yuqori unumdor texnikalar olib kelina boshlandi. Ushbu texnikalarni olib kelinishi, sohada yuzaga kelgan texnikaga bo'lgan taqchillikni oldini oldi, shu bilan birga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun bir qancha muammolarni tug'dirdi. Chunki zamonaviy, yuqori unumdor texnikalardan to'g'ri foydalanish, ularga texnik servisni tashkillashtirish masalalari yuzaga keldi.

Respublikamiz agrar sohasini rivojlantirish mashina va mexanizmlardan unumli foydalanish, bozor islohotlari tufayli texnikaviy, tabiiy, tashkiliy va iqtisodiy omillarni bir-biri bilan uzviy bog'lagan hollardagina samaraga erishish mumkin. Fermer xo'jaliklarini zamonaviy texnika resurslari bilan ta'minlash, tashkiliy ishlarni takomillashtirish, doimiy ravishda ish unumdorligini oshirish, qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlarni kamaytirish va ularni mashinalar zimmasiga yuklash, yetkazilayotgan mahsulotlarning tannarxini pasaytirish, mehnat sarfini va mashinalarga texnik xizmat (servis) ko'rsatish, ta'mirlash ishlarida zahira qismlarni sarflashni kamaytirishni taqozo etadi. Shuningdek, dehqonchilikda va meliorativ ishlarni mexanizasiyalashda mashinalardan yuqori unum bilan foydalanishda ularning texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarini yaxshilash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologik jarayonlarini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Chunki, barcha texnika turlari ham boshqa ishlab chiqarish vositalari singari yeyiladi, eskiradi va oqibatda ishdan chiqib yaroqsiz holatga keladi. Konstruktorlar, texnologlar va korxonalar shu kunga qadar xizmat muddatini munatazam texnik xizmat (servis) va ta'mirlash talab etmasdan turib,

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Barak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо		

birorta texnologik jarayonni uzoq yillar mobaynida bajaruvchi mashina turini kashf etganlari yo'q. Barcha turdagi mashinalar foydalanilsa ham, foydalanilmasa ham fizikaviy va ma'naviy eskirish jarayoniga muhtalo bo'ladi. Bu esa, turli texnikalarning xizmat muddatiga qarab «Rejali-ogohlantiruvchi tizim» asosida texnik xizmat (servis) ko'rsatish va ta'mirlash turlarini bajarish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda respublikamiz qishloq va suv xo'jaliklarida mingdan ortiq zamonaviy ekskavatorlar qo'llanilmoqda. Ularni doimo ishga shay holda ushlab turish, texnik servis ko'rsatish, ta'mirlash (joriy va butkul), yeyilgan detallarining resursini qayta tiklash kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mashinalarga texnik servis ko'rsatishning belgilangan, talab bo'yicha, umumlashgan va rejali-ogohlantiruvchi strategiyalari qo'llaniladi. Ushbu strategiyalar o'tkazilish tartibi, davriyligi va bajariladigan ishlar tannarxiga ko'ra o'zining qator afzallik hamda kamchiliklariga ega.

Texnik servisni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish avvalo ushbu strategiyalar tahliliga asoslanadi.

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Barak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо	Сана	

«AgroServis» korxonasi rivojlanish bosqichlari

«Agroservis» o'zbek korxonasi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining 04.09.1997 yildagi № 423 sonli farmoyishiga asosan tashkil etildi. Respublika 13 viloyatlarda texnik servis markazlari, 100 dan ortiq ko'chma xizmat ko'rsatish agregatlari hamda zaruriy asbob-anjomlar to'plami bilan qurollangan tizimga ega shtat ro'yxati 150 kishini tashkil etgan holda o'z faoliyatini boshladi. Servis injenerlari avval Amerika qo'shma shtatlarida so'ngra esa mamlakatimizda tizimli ravishda malakalarini oshirib, namunali servis xizmati ko'rsatmoqdalar.

Hozirgi kunda 4500 dan ortiq g'alla kombaynlari, traktorlar va qurilish mashinalariga o'z vaqtida servis xizmatini ko'rsatib kelmoqda.

«Ta'minotchi-paxta» zonal bazasi xududida 156 kishidan tashkil topgan omborxona xizmati zaruriy ehtiyot qismlar bilan ta'minlash ustida uzluksiz ish olib bormoqdalar.

«Agroservis» korxona bazasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi o'kuv markazi faoliyat ko'rsatib, nafaqat injener-texnik xodimlar balki texnika egalari personalini mashinalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha ta'lim bermoqda.

«Agroservis» servis xizmatlarining yangi turlarini joriy qilish bilan birga extiyot qismlarni lokalizasiyalash dasturlarini ham amalga oshirmoqdalar.

Korxona personalii quyidagi servsi xizmatlarini ko'rsatadi:

- Diagnostika, kompyuter diagnostika
- Modifikasion dastrular
- Joriy ta'mir
- Dvigatellar remonti
- Transmissiya remonti
- Butkul ta'mirlash
- Malaka oshirish
- Rostlash va sozlash ishlari
- Dala sharoitida xizmat ko'rsatish
- Boshqa ishlar

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Barak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо		

Yangi o'zlashtirilgan xizmatlar.

- BOSCH, DELPHI CAV yonilg'i apparatlari va forsunkalarini sinash va ta'mirlash
- Shinalar ta'miri
- PRINCE jihozida tirsakli vallarni jilvirlash
- Generator va starterlarni ta'mirlash
- Yuqori bosim gidravlik quvurlarni ishlab chiqarish va ta'mirlash
- «CUMMINS» dvigatellarini ta'mirlash
- Turbokompressorlarni ta'mirlash
- Hidroakkumulyatorlarni ta'mirlash

Bundan tashqari «Agroservis» korxonasi **BOSCH, CUMMINS, CONTINENTAL, KVERNELAND va YANMAR** kompaniyalarining O'zbekistondagi akreditlangan vakili hisoblanadi.

Korxonaning Samarkand viloyatidagi markazi Samarkand shaharida joylashgan bo'lib, uning bosh plani quyidagi rasmda keltirilgan.

Zamonaviy ekskavatorning tuzilishi. CLG230 "LIUGONG" rusumli eskavator Xitoy xalq Respublikasida ishlab chiqarilgan bulib, uning ko'rsatkichlari qo'yidagicha:

- | | | |
|---------------------------|---|----------|
| 1. Og'irligi, kg | - | 23000 |
| 2. Cho'mich xajmi, m3 | - | 0,73-1,1 |
| 3. Dvigatel quvvati, kVT- | | 125 |

1.1-rasm. CLG230 "LIUGONG" rusumli eskavatorining umumiy ko'rinishi



Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Bapak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Bapak	№ хужжат	Имзо		

CLG230 "LIUGONG" rusumli eskavatorining texnik tavsifi

1.1-jadval

Agregat nomlanishi	Rusumi va texnik ko'rsatkichlari
Dvigatel	Cummins B5.9-C
Dvigatel	156 l. s. (115 kVt), 2100 ob./min
Gidronasos turi	O'zgaruvchan o'qli porshen
Gidrotizim sarfi	2 × 227 l/min
Markaziy rama	Forma X
Yurish qismi	Karobokali
Gusenisalar orasidagi masofa	2390 mm
Zanjirni yer bilan ilashish uzunligi	3460 mm
Yo'l prosveti	476 mm
Posongi bo'yicha yo'l prosveti	1129 mm
Gusenisa kengligi	600 mm
Eng past tezlik	2,95 km/ch
Eng yuqori tezlik	4,6 km/ch
Maksimal qazish balandligi	10 410 mm
Maksimal qazish oralig'i	9750 mm
Maksimal qazish chuqurligi	6930 mm
Chekka o'lchamlari	9960 × 2990 × 3050 mm
Og'irligi	23 000 kg
Kovsh xajmi	1,1 kub. m.

Raxbar	Beknazarov A		
Bajardi	Mardiev M		
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо
			Сана

001.001.083. BMI. 2014 y.

Barak

I - BOB. TEXNOLOGIK QISM

1.1. Texnik servis xizmati ko'rsatish strategiyasi va tizimi

Mamlakatimizda mashinalarga texnik xizmat ko'rsatishning ilmiy jihatdan asoslangan rejali-oldini olish sistemasi qabul qilingan. Bu sistemaning modiyati shundan iboratki, mashinalarini ishlatish davomida ularning ishga doim tayyor bo'lishini ta'minlovchi xizmat ko'rsatish, ta'mir qilish va saqlashga oid rejali tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan.

Texnik xizmat ko'rsatishning mavjud rejali-oldini olish sistemasi barcha meliorasiya va qurilish mashinalari uchun yagona hisoblanadi. Unga quyidagi asosiy xizmat ko'rsatish turlari kiradi:

1. Mashinalarini tashishda texnik xizmat ko'rsatish. Bu tashishga tayyorlash, bir joydan ikkinchi joyga olib borish va belgilangan joyga kelgach, xizmat ko'rsatishdan iborat.

2. Mashinalaridan foydalanishda ularga texnik xizmat ko'rsatish; ekspluatasion chiniqtirishda texnik xizmat ko'rsatish, ya'ni chiniqtirishga tayyorlashda, chiniqtirish jarayonida va u tugagach xizmat ko'rsatish; har smenada texnik xizmat ko'rsatish, birinchi, ikkinchi va mavsumiy texnik xizmat ko'rsatishlarni o'z ichiga oladigai davriy texnik xizmat ko'rsatishga bo'linadi.

3. Mashinalarni saqlashda ularga xizmat ko'rsatish saqlashga tayyorlashda, saqlash jarayonida va saqlovdan chiqqanida xizmat ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Bundan tashqari texnik xizmat ko'rsatish sistemasiga texnik ko'zdan kechirish va material-texnika ta'minoti kiradi.

Texnik xizmat ko'rsatish rejali-oldini olish sistemasining asosiy qismlari ma'lum ish muddatidan yoki meliorasiya va qurilish mashinalari ma'lum vaqt ishlaganidan keyin amalga oshiriladi. Bunda texnik xizmat ko'rsatishning barcha ishlari bajarilishi majburiy bo'lib, ta'mirga oid ishlar zxtiyojga karab bajariladi. Sistemaning har bir qismi bo'yicha ishlarni tegishli texnik hujjat zavod instruksiyasi, mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish qoidalari, texnik xizmat

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Barak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо		

ko'rsatish va texnik tashxis qo'yish texnologiyasi, shuningdek meliorasiya va qurilish mashinalari parkiga xizmat ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar asosida bajarish kerak.

Texnik xizmat ko'rsatish mashinalar detallari, uzellari va mexanizmlarini tozalash, tekshirish, rostlash, mahkamlash va moylash ishlaridan iborat bo'lib, bo'lardan ko'zda tutilgan maqsad yangi va kapital ta'mirdan chiqqan mashinalarning ishlab me'yorl moslanishini, ularning buzilishi, avariya va sinishining oldini olib ishga yaroqli holatda bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Barcha texnik xizmat ko'rsatish ishlarini quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin: yuvish-tozalash, tekshirish-ko'zdan kechirish, moylash va rostlash. Bu guruxlar ularning bajarilish tartibi bilan ko'rsatilgan. Navbatdagi texnik xizmat ko'rsatishda bundan oldingi barcha ishlar qo'shib bajariladi.

Mashinalarga xizmat ko'rsatish qoidalari texnik xizmat ko'rsatish turiga qarab guruxlangan majburiy bajariladigan ishlar ro'yxatidan iborat. Mashinalarni texnik ko'zdan kechirish, odatda, mashinalardan foydalanish qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish, ularning yana foydalanishga yaroqliligi yoki ta'mirtalabligini aniqlashdan iborat bo'ladi.


Texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mir qilish sistemasi quyidagi texnik xizmat ko'rsatish turlarini o'z ichiga oladi (1.2-rasm)

- ekspluatasion chiniqtirishda texnik xizmat ko'rsatish;
- tashishda texnik xizmat ko'rsatish;
- har smenada texnik xizmat ko'rsatish (XSTXK);
- birinchi texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK);
- ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2- TXK);
- uchinchi texnik xizmat ko'rsatish (3-TXK);
- mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish (MTXK);
- saqlash jarayonida texnik xizmat ko'rsatish.

Birinchi, ikkinchi va uchinchi texnik xizmat ko'rsatish davriy (rejali) texnik xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Bapak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Bapak	№ хужжат	Имзо		

Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan barcha markadagi mashinalari ekspluatasion sikl, ya'ni birinchi asosiy ta'mirgacha yoki ikki asosiy ta'mirlararo davrda 1-TXK 2-TXK va 3-TXK dan yagona tartibda (navbatda) o'tkaziladi.



1.1-rasm. Agrar sohasida texnikalardan foydalanishda resurstejamkorlikni ta'minlovchi tizim.

Amalda mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish vahti ikki ko'rsatkich: ishlangan moto-soatlar yoki sarflangan yonil'iga qarab belgilanadi. Barcha markadagi mashinalar uchun moto-soat bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish vaqti bir xil bo'ladi. Jumladan, 1-TXK uchun 125 moto-soat, 2-TXK uchun 500 va 3-TXK

Raxbar	Beknazarov A		
Bajardi	Mardiev M		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо
			Сана

001.001.083. BMI. 2014 y.

Варак

uchun 1000 moto-soatdan keyin o'tkaziladi. Mashinalarining ish sharoitlariga karab texnik xizmat ko'rsatish muddatlarini $\pm 10\%$ ga o'zgartirish mumkin.

Mashinalariiga texnik xizmat ko'rsatish strukturasi quyidagilardan iborat.

1. Biror joyga kuchirishga tayyorlashda, ko'chirish jarayonida va ko'chirib bo'lgandan keyin mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini o'z ichiga oluvchi texnik xizmat ko'rsatish.

2. Mashinalaridan foydalanishda ularga texnik xizmat ko'rsatish quyidagilarga bo'linadi:

- chinqtirishga tayyorlashda, chiniqtirish jarayonida va chiniqtirish tugagandan keyin xizmat ko'rsatishdan iborat ekspluatasion chiniqtirishda texnik xizmat ko'rsatish;

- har smenada texnik xizmat ko'rsatish (HSTXK);

- birinchi davriy texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK);

- ikkinchi davriy texnik xizmat ko'rsatish (2-TXK).

3. Saqlashga tayyorlashda, saqlash davrida va ishlatishga olishda texnik xizmat ko'rsatish.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilayotgan qishloq va suv xo'jaligi texnikalari texnik servisning mos ravishda rejali ogohlantiruvchi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular talab bo'yicha, davriy ravishda va texnik holatiga asosan bajariladi. Ushbu tizim elementlarini quyidagicha guruhga ajratish mumkin:

- ekspluatasion chiniqtirishda texnik xizmat ko'rsatish;

- tashishda texnik xizmat ko'rsatish;

- har smenada texnik xizmat ko'rsatish (XSTXK) – 8-10 soat;

- birinchi texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK) – 250 moto-soat;

- ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2- TXK) - 500 moto-soat;

- uchinchi texnik xizmat ko'rsatish (3-TXK) – 1000 moto-soat;

- mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish (MTXK);

- saqlash jarayonida texnik xizmat ko'rsatish:

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Barak
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо	Сана	

- joriy ta'mirlash
- kapital ta'mirlash.

Quyida zamonaviy ekskavatorlar misolida texnik servisning belgilangan davrlarida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar tuzilmasi keltirilgan (CLG230 "LIUGONG" ekskavatoriga texnik servis ko'rsatish tartibi):

1.1 -jadval

Ekskavator agregati nomlanishi	Agregat tizimi va qismi nomlanishi	Bajariladigan ishlar nomi va davriyligi
1	2	3
Dvigatel – 6VTA-590 Kamminiz	Moylash tizimi	- sath tekshirish – 10 m.s. - moy almashtirish – 250 m.s. - filtrlar almashtirish – 250 m.s. - xomutlarni qotirilishini tekshirish – 250 m.s. - sistema hajmi – 15 litr. - motor moyi rusumi SAE 15W – 40.
Dvigatel – 6VTA-590 Kamminiz	Sovitish tizimi:	- sath tekshirish (rezervuardagi) – 10 m.s. - suyuqlik almashtirish – 1000 m.s. (2 y. 1marta). - sath tekshirish (radiatordagi) – 250 m.s. - xomutlarni qotirilishini tekshirish – 250 m.s. - sistema hajmi – 29,3 litr. - Sovutuvchi suyuqlik rusumi «Etilenglikol – suv» (50/50). - Termostat ish tartibi– 83 – 95⁰S.
Dvigatel – 6VTA-590	Ta'minlash tizimi:	- sath tekshirish (bakdagi) – 10 m.s. - bak hajmi – 341 l.

Kamminiz		- filtrlardan suv tushirish – 50 m.s. - filtrlarni almashtirish – 500 m.s.
Dvigatel – 6VTA-590 Kamminiz	Havo bilan ta'minlash tizimi:	- Filtrlarni tekshirish – 10 m.s. - Filtrlarni tozalash (indikator qizil rangi). - Filtrlarni almashtirish: birlamchi – 1 y.1 marta yoki 4 tozalashdan keyin; ikqilamchi – 1y. 1 marta.-500 moto-soat
Transmissiya	Yurish qismi	- sath tekshirish – 250 m.s. - moy almashtirish – 1000 m.s. - sistema hajmi –2ch3,3 litr.
Transmissiya	Burilish platformasi	- sath tekshirish – 250 m.s. - moy almashtirish – 1000 m.s. - sistema hajmi – 6,6 litr.
Gidravlik tizim		- sath tekshirish – 50 m.s. - moy almashtirish – 1500 m.s. - filtrlarni almashtirish 1500 m.s.

Zamonaviy ekskavatorlarga texnik xizmat ko'rsatish jarayonida bajariladigan ishlar tarkibi texnik servis jarayoniga quyiladigan talablar va mos ravishda mashina qism va uzellarini moylash sxemalariga asoslangan holda har 10, 50, 100, 250, 500, 1000, 1500 va 2000 moto-soat ish xajmidan keyin quyidagilar bajariladi:

1) Kundalik TXK

- Tashqi nazorat (ko'zdan kechirish);
- Yonilg'i sathini tekshirish (zarur bo'lsa qo'shimcha quyish);
- Hidravlik tizimdagi moy sathini tekshirish;
- Dvigatel karteridagi moy sathini tekshirish;
- Dvigatel sovitish tizimidagi suyuqlik sathini tekshirish;
- Boshqarish paneli va signal lampalarini holatini tekshirish;
- Ventilyator tasmasi tarangligini tekshirish.

2) Har bir 50 moto-soat ish bajarilgandan keyin bajariladigan ishlar:

- Yonilg'i bakidan cho'kindilarni to'kish;
- Burilish mexanizmi podshipnigini moylash

- Burilish reduktori moyi sathini teshirish;
 - Moylash nuqtalari bo'ycha:
 - Xartum gidrosilindri gilzasi proushinasi
 - yurituvchi val sharniri
 - xartum asosi
 - gidrosilindr tirsagi gilzasi proushinasi
 - gidrosilindr tirsagi shtogi proushinasi
 - cho'mich gidrosilindri gilzasi proushinasi
 - cho'mich gidrosilindri shtogi proushinasi
 - tirsak va cho'mich birashmasi
 - cho'mich va tortqi birlashmasi
 - cho'michni boshqarish tortqisi
 - cho'mich tortqisi birlashmasi
 - otval gidrosilindi
 - otval sharniri o'qi
 - autrigger sharniri o'qi va silindr o'qi
 - oldingi va ketingi yurituvchi vallar
 - ko'rpiklar tayanch o'qlari
 - g'ildirak stupisalari
 - rul mexanizmi tortqilari
- 3) Birinchi 50 moto-soat davrdan so'ng bajariladigan ishlar:
- Dvigatel karteridagi motor moyi almashtiriladi;
 - Motor moyi filtri almashtiriladi;
 - Pilot tizimi filtri almashtiriladi;
 - Gidravlik tizimi filtri almashtiriladi;
 - Gidravlik drenaj filtri kartriji almashtiriladi;
 - Yonilg'i filtri almashtiriladi;
- Quyidagi bolt va gaykalar holati nazorat qilinadi va kotiriladi:
- uzatmalar qutisini mahkamlash boltlari

- burilish gidromotori maxkamlash boltlari
 - posangi yukki maxkamlash boltlari
 - burilish sharnirlari stopor boltlari
 - dvigatel maxkamlash boltalari
 - gidravlik nasos maxkamlash boltlari
- 4) Birinchi 100 moto-soat davrdan so'ng bajariladigan ishlar:
- Transmissiya karteridagi moy almashtiriladi
- 5) Har bir 100 moto-soat ish bajarilgandan keyin bajariladigan ishlar:
- Gidravlik tizim filtri almashtiriladi;
 - Pilot tizimi filtri almashtiriladi;
 - Gidravlik tizim sapun elementi almashtiriladi;
- 6) Birinchi 250 moto-soat davrdan so'ng bajariladigan ishlar:
- Burilish reduktoridan transmission moy almashtiriladi;
 - Burilish reduktori moyi satxi tekshiriladi;
- 7) Har bir 250 moto-soat ish bajarilgandan keyin bajariladigan ishlar:
- Akkumulyator batareyasi elektrolit satxi tekshiriladi;
 - Filtrlovchi elementlar (havo tozalovchi) elementlar almashtiriladi;
 - Pilot tizimi filtri almashtiriladi;
 - Gidravlik bak sapun elementi almashtiriladi;
 - Ko'priklar va yurituvchi val moylanadi;
 - Ko'priklar karteridagi moy satxi tekshiriladi;
 - Transmission moy satxi tekshiriladi;
 - Bolt va gaykalar holati tekshiriladi:
 - uzatmalar qutisini mahkamlash boltlari
 - burilish gidromotori maxkamlash boltlari
 - posangi yukki maxkamlash boltlari
 - burilish sharnirlari stopor boltlari
 - dvigatel maxkamlash boltalari
 - gidravlik nasos maxkamlash boltlari

- 8) Birinchi 500 moto-soat davrdan so'ng bajariladigan ishlar:
- Ko'priklardagi moylar almashtiriladi
- 9) Har bir 500 moto-soat ish bajarilgandan keyin bajariladigan ishlar:
- Dvigatel motor moyi va moy filtri almashtiriladi;
 - Ventilyator va radiator qovurg'alari tozalanadi;
 - Havo tozalash filtrlari elementlari tozalanadi;
 - Yonilg'i filtri almashtiriladi.
- 10) Har bir 1000 moto-soat ish bajarilgandan keyin bajariladigan ishlar:
- Burilish reduktoridagi transmission moy almashtiriladi;
 - Burilish mexanizmi, shesternya va uzatmalar moy ashyolari almashtiriladi;
 - Ko'priklardagi moylar almashtiriladi;
 - Transmission moylar almashtiriladi.
- 11) Har bir 2000 moto-soat ish bajarilgandan keyin bajariladigan ishlar:
- Gidravlik tizimi moy iva filtri almashtiriladi;
 - Dvigatel sovitish tizimidagi suyuqlik almashtiriladi;
- 12) Talab bo'yicha zaruriy hollarda TXK
- Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi:
 - yonilg'i baki tozalanadi
 - suv separatori almashtiriladi
 - yonilg'i tozalash filtri almashtiriladi
 - Dvigatel moylash tizimi:
 - motor moy iva filtri almashtiriladi
 - Dvigatel sovitish tizimi:
 - sovituvchi suyuqlik almashtiriladi
 - radiator tozalanadi
 - Havo bilan ta'minlash tizimi:
 - havo filtrlari elementlari tozalanadi
 - Gidravlik tizim:

- gidravlik tizimdagi moy almashtiriladi
- filtrlar almashtiriladi
- klapanlar tozalanadi
- Shinalardagi bosim yoki zanjir qismi tarangligi tekshiriladi
- Cho'mich tishlari, yon grunt kesish qismlari almashtiriladi
- Kondisioner va isitish tizimi filtrlari tozalanadi yoki almatiriladi

Ekskovatorga texnik xizmat ko'rsatishda moylash nuqtalari

1.2 –jadval

Dav-riy-lik	№	Bajariladi-gan ishlar mazmuni	Xizmat ko'rsatish turi	Moylash belgila-nishi	Xajmi, l	Moylash nuqtalari
1	2	3	4	5	6	7
10 soat yoki har kuni	1	Yonilg'i baki	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	DT	270	1
	2	Gidrotizim moyi sathi	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MG	124	1
	3	Dvigatel karteridagi moy	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MM	15,3	1
	4	Radiatoridagi sovituvchi suyuqlik	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	OJ	24	1
	5	Boshqarish pulti va signal lampalari	Tekshirish			1
	6	Suv ajratish filtri	Tekshirish, tozalash			2
	7	Ventilyator tasmasi tarangligi	Tekshirish, rostlash			1

Raxbar	Beknazarov A		
Bajardi	Mardiev M		
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо
			Сана

001.001.083. BMI. 2014 y.

Барак

1.2 –jadval davomi

1	2	3	4	5	6	7
50 soat yoki bir hafta	8	Ish jihozlari	Tekshirish, moylash	KS		
	9	Yonilg'i baki setkali filtri	Tekshirish, tozalash			1
	10	Burilish aylanasi platformasi	Tekshirish, moylash	KS		3
	11	Yuritish vali	Tekshirish, moylash	KS		6
	12	Uzatmalar qutisi karteri moyi	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MM	3,2	1
	13	Burilish reduktori moyi	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MT	2,5	1
	14	Burilish motori reduktori	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	KS	0,35	1
250 soat	15	Olding ko'prik tayanch sapfalari	Tekshirish, moylash	KS		2
	16	Akkumulyator batareyasi	Tekshirish			2
	17	Gidrotizim filtr elementi	Almashtirish			1

Raxbar	Beknazarov A		
Bajardi	Mardiev M		
Uzr	Barak	№ хужжат	Имзо

001.001.083. BMI. 2014 y.

Барак

1.2 –jadval davomi

1	2	3	4	5	6	7
250 soat	18	Pilot tizimi filtr elementi	Almashtirish			1
	19	Drenaj filtri kartridji	Almashtirish			1
	20	Gidrobak sapuni elementi	Almashtirish			1
	21	Oldingi ko'prik differensial reduktori moyi	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MT		1
	22	Ketingi ko'prik differensial reduktori moyi	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MT		1
	23	Planetar reduktor (oxirgi uatma)	Tekshirish, qo'shimcha qo'yish	MT		1
	24	Rul boshqarmasi	Tekshirish, moylash	KS		2
500 soat	3	Motor moyi	Almashtirish	MM	15,3	1
	25	Motor moyi filtri	Almashtirish			1

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.		Barak
Bajardi	Mardiev M					
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		


1.2 –jadval davomi

1	2	3	4	5	6	7
1000 soat	26	Havo tozalash filtrlari	Tekshirish, tozalash			2
	27	Radiator va ventilyator	Tekshirish, tozalash			1
	28	Yonilgi filtri	Almashtirish			1
	12	Uzatmalar qutisi moyi	Almashtirish	MM	3,2	1
	13	Burilish reduktori moyi	Almashtirish	MT	2,5	1
	21	Oldingi ko'prik karteridagi moy	Almashtirish	MT	7,75	1
	22	Ketingi ko'prik karteridagi moy	Almashtirish	MT	8,4	1
	23	Oxirgi uzatma karteridagi moy	Almashtirish	MT	1,2	4
	29	Burilish mexanizmi shesternyasi moyi	Almashtirish	KS	4,4	1


Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Варак
Bajardi	Mardiev M				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

1	2	3	4	5	6	7
2000 soat	2	Gidrotizim moyi	Almashtirish	MG	124	1
	4	Radiator dagi sovituvchi suyuqlik	Almashtirish	OJ	24	1
	30	Gidrotizim setkali filtrlari	Tekshirish, tozalash			1
Talab bo'yicha	31	Kondisioner filtri	Tekshirish, tozalash			2

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning rejali – ogohlantiruvchi tizimiga asosan kundalik, davriy va mavsumiy texnik xizmat ko'rsatishlar jarayonida ko'pgina moylash ishlari har bir mashinaning moylash sxemasiga asosan o'tkaziladi.



Raxbar	Beknazarov A					
Bajardi	Mardiev M					
Узг. Варақ	№ хужжат	Имзо	Сана	001.001.083. BMI. 2014 y.		
						Варақ



1.2–rasm . “SLG 236 LIUGONG “rusumli ekskavatorning moylash nuqtalari joylashish tartibi

1.2. Texnik servis ko'rsatishni tashkil etish

Mashinalarga texnik servis ko'rsatishning belgilangan, talab bo'yicha, umumlashgan va rejali-ogohlantiruvchi strategiyalari qo'llaniladi. Ushbu strategiyalar o'tkazilish tartibi, davriyligi va bajariladigan ishlar tannarxiga ko'ra o'zining qator afzallik hamda kamchiliklariga ega.

Texnik servisni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish avvalo ushbu strategiyalar tahliliga asoslanadi. Shu bois quyidagi rasmda texnika xizmat ko'rsatish va ta'mirlash strategiyalarining tahliliy sxemasi keltirilgan bo'lib, unda ushbu strategiyalar alohida yoki kombinasiyalashgan holda qo'llanilishi mumkin .

Texnik servis jarayoniga quyiladigan talablar vam os ravishda mashina qism va uzellarini moylash sxemalariga asoslangan holda har 10, 50, 100, 250, 500, 1000, 1500 va 2000 moto-soat ish xajmidan keyin belgilangan ishlar bajariladi.

Raxbar	Beknazarov A		
Bajardi	Mardiev M		
Uzr	Варак	№ хужжат	Имзо
			Сана

001.001.083. BMI. 2014 y.

Варак

Rivojlangan xorijiy davlatlarda texnik servisni firmali usuli keng tarqalgan bo'lib, O'zbekistonda ham shunday tizim faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tizim o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bulib, ular quyidagicha:

Ijobiy tomonlari:

- *Texnika ishlab chiqaruvchilar uchun:* ishlab chiqarish texnikasidan foydalanishda asosiy detal va elementlarni ishlashini nazorat qilish, texnika bilan bog'liq barcha ishlarni bajarish, ishlab chiqarish uchun qisqa va uzoq muddatli prognozlar tuzish imkoniyati mavjudligi;

- *Qishloq xo'jalik korxonalari uchun:* dilerlar tomonidan tiklash –tamirlash ishlarini sifatli bajarilishi, malum muddat ishlagandan so'ng texnikani ishlab chiqaruvchiga qaytarib berish imkoniyati, bir xil turdaga texnikalarni, turli texnik parametrlarni keng nomenklaturas, chiqariladigan texnikaning yuqori sifatlilik ta'minlash.

Salbiy tomonlari:

- *Texnika ishlab chiqaruvchilar uchun:* har bir ishlab chiqaruvchi uchun ko'plab dilerlik tizimining bo'lishi ularni tashkil etish va mablag'lashtirish bo'yicha qiyinchiliklar, dilerlik har doim ham texnika ishlatilayotgan joyga yaqin joylashmaganligi, chiqarilayotgan mahsulotning katta seriyali chiqarilishi imkoniyati yo'qligi, chiqarilayotgan texnikaning katta partiyasini tiklashni tashkil etishning murakkabligi;

- *Qishloq xo'jalik korxonalari uchun:* kafolat muddatidan so'ng tiklash-tamirlash ishlarini qimmatligi, kafolat muddati davrida boshqa tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilganda kafolatli xizmat ko'rsatishdan voz kechish, turli ishlab chiqaruvchilar yetkazgan texnikalar bo'lganda barchasining dilerlarini manzilgohlari malum bo'lishi kerak, qishloq xo'jalik texnikasini ishlab chiqaruvchilarning uni rasional ishlatishga qiziqmasligi, qishloq xo'jalik texnikasi va zaxira-ehtiyot qismlarining nisbatan qimmatligi, texnikadan rasional foydalanishga qiziqish yo'qligi, chiqarilayotgan texnikani nisbatan sifati pastligi, texnikani ommaviy chiqarilishi joylardagi tovar ishlab chiqaruvchilarning o'ziga hosligi hisobga olmasligi.

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Варак
Bajardi	Mardiev M				
Узг. Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Yuqoridagi tizim elementlari va tashkil etish tizimini tahlili asosida O'zbekiston sharoitida zamonaviy xorijiy texnikalarga xizmat ko'rsatishda firmali tizimning o'ziga xos (ishlab chiqarish sharoiti) takil etishni talab etadi. Bunga esa bu sohada chuqur ilmiy izlanishlar asosida tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Oxirgi o'n yillikda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barcha sohalari o'zgarishga yuz tutdi, yani mashina –traktor parkini yangilanish sur'ati anchagina ko'tarilgani bilan bir qatorda qishloq xo'jalik texnikasining hisobdan chiqishi minimal qiymatga ega bo'lmoqda. Bu holat foydalanilayotgan texnika yoshining anchagina ortishiga olib keldi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining mashina –traktor parkini yangilash va to'ldirish uchun ularning foyda olishini ta'minlash uchun texnikadan to'g'ri, unumli foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish zarur.

Mavjud texnik vositalarni rasional qo'llashga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining o'zlari tomonidan texnikani ishchi holatda saqlash uchun texnik servisni yaxshilash bilan yani: texnikani uzoq muddat saqlashni tashkil etish, mashina detallarini ish holatini tiklash, texnik qarovni, joriy va kapital tamirlashni tashkil etish bilan erishish mumkin .

Masalani yechishda maxsus korxonalar mamalakat miqyosida texnik servis tizimini tashkil etadilar.

Tizimning maqsadi – texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda minimal moddiy-pul mablag'larini, mehnat resurslari xajmiga erishgan holda mashina va jihozlarning texnik tayyorgarligini talab etiladigan darajada ta'minlashdan iboratdir. Amaliyotdan ma'lumki, mashinalarning ish jarayonini va texnik holati, buzilishlari tasodifiy bog'liqlikka ega. Shuning uchun mashinalarning ish qobiliyatini tiklash ishlariga ehtiyoj paydo bo'lganda, ya'ni ularning texnik holatiga qarab, servis xizmat ko'rsatishning «Rejali-ogohlantiruvchi» tizimi asosida texnik xizmat ko'rsatish (KTXK, DTXK, MTXK) bajarilgan ish xajmiga, miqdoriga (moto-soat, t, km, tkm, m³, ga va h.) karab majburiy (rejali) ravishda amalga oshiriladi.

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Варак
Bajardi	Mardiev M				
Узг. Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish moylash, rostlash va mahkamlash ishlari davriyligini belgilaydi. Bu ishlar texnik xizmat ko'rsatishga sarflanadigan mehnat va mablag'lar sarfida eng katta ulushni tashkil etib, texnik xizmat ko'rsatish turida u yoki bu ish turini qisqartirish uchun chuqur ilmiy izlanishlar natijasida asoslash talab etiladi. Chunki mavjud tizimni takomillashtirishda faqat iqtisodiy mezonigagina asoslanib, bajarilayotgan xizmat sifatini pasayishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Respublikamiz ishlab chiqarishiga bir qancha xorijiy davlatlarning texnikalarining kirib kelishi texnik servis tizimini o'zgarishiga, ya'ni firmali servis ulushining ko'payishiga olib keldi. Biroq firmali servis markazini tashkil etish uchun belgilangan miqdorda texnika sotib olinishi talab etiladi, aks holda qaysidir firma bilan shartnoma asosida servis xizmati ko'rsatishni tashkil etadi. Bu esa ko'rsatilayotgan xizmat tannarxining baland bo'lishiga olib keladi va texnika taqdiri boshqa bir korxona (u ishlab chiqarish korxonasi bilan aloqasi yo'q) da ishlab chiqarish jarayoni sifatiga bog'liq bo'lib qoladi.

Zamonaviy ekskavatorlarni sotib olish ko'lamiga kengligi bo'lgan viloyatlarda servis markazlari tashkil etilgan. Lekin sotib olinayotgan meliorativ va qurilish mashinalari (qishloq xo'jalik tarmoqlari uchun) sotib olish soni kamligi sababli ularni texnik servisini tashkil etilmagan. Servis xizmati markazlashtirilgan holda Respublika bo'yicha sanoqli markazlarda shartnoma asosida bajarilmoqda.


Qishloq xo'jaligida mashinalarga texnik servis ko'rsatishning belgilangan, talab bo'yicha, umumlashgan va rejali-ogohlantiruvchi strategiyalari qo'llaniladi. Ushbu strategiyalar o'tkazilish tartibi, davriyligi va bajariladigan ishlar tannarxiga ko'ra o'zining qator afzallik hamda kamchiliklariga ega.

Texnik servisni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish avvalo ushbu strategiyalar tahliliga asoslanadi.

GOSNITI olimlari tomonidan 80 yillarda ishlab chiqilgan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning rejali-ogohlantiruvchi tizimi, agrosanoat majmuasi texnik servis korxonalari tarkibi va darajasi, xorijiy davlatlarda mashinalarga texnik servisni tashkil etish turlari tahlili asosida zamonaviy meliorativ va qurilish mashinalariga texnik servis tizimini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Taklif qilinayotgan texnik servis markazi

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Варак
Bajardi	Mardiev M				
Узг. Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

mashinalardan samarali foydalanish strategiyasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uning tarkbiy tuzilmasi quyidagi rasmda keltirilmoqda (2.6-rasm).



2.3-rasm. Texnik servis tizimini tashkiliy tuzilmasi.

Yuqorida keltirilgan texnik servisni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar agrosanoat majmuasida mashinalarni sotishni tashkil qilish, foydalanish davrida ish qobiliyatini ta'minlash, ekspluatasion nosozliklarni barataraf etish hamda resursini tiklash, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda mashinalar ishonchlilik ko'rsatkichlarini baholash, oshirish bo'yicha tavsiyalar, konstruktorlik takliflarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Bu esa o'z navbatida mashinalardan foydalanish ko'rsatkichini oshirishga, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalardan samarali foydalanishga, extiyot

Raxbar	Beknazarov A				
Bajardi	Mardiev M				
Uzr	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	001.001.083. BMI. 2014 y.
					Варак

qismlarga sarflanayotgan valyuta mablag'larini, ishlab chiqarish jarayonida sarflanayotgan yuqori sifatli ashyo, energiya resurslari, vaqt, ish kuchini tejash hamda atrof muhitga keltirilayotgan ekologik zararni oldini olish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan texnik servisni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar agrosanoat majmuasida mashinalarni sotishni tashkil qilish, foydalanish davrida ish qobiliyatini ta'minlash, ekspluatasion nosozliklarni barataraf etish hamda resursini tiklash, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda mashinalar ishonchlilik ko'rsatkichlarini baholash, oshishir bo'yicha tavsiyalar, konstruktorlik takliflarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Bu esa o'z navbatida mashinalardan foydalanish ko'rsatkichini oshirishga, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalardan samarali foydalanishga, extiyot qismlarga sarflanayotgan valyuta mablag'larini, ishlab chiqarish jarayonida sarflanayotgan yuqori sifatli ashyo, energiya resurslari, vaqt, ish kuchini tejash hamda atrof muhitga keltirilayotgan ekologik zararni oldini olish imkonini beradi.

Raxbar	Beknazarov A			001.001.083. BMI. 2014 y.	Barak
Bajardi	Mardiev M				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

2 - BOB. KONSTRUKTIV QISM

